

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **TUL'TEYEV ILYAS TABASOVICH**
Послание Президента страны к народу и
Олий Мажлису: конституционно-правовой
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya
qilish zarurati
- 35 **ALIMUXAMEDOV SUHROB
AYBEKOVICH**
Децентрализация системы государственного
управления в унитарных и федеративных
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy
jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК
РУСТАМБЕКОВИЧ**
Реформирование основ сравнительного
правоведения в цифровую эру: новые
принципы и подходы

85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**
Улучшение системы взыскания алиментов
в Казахстане: проблемы и перспективы

94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Гражданско-правовые способы защиты
слабой стороны договора

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari
himoya qilish shakllari sifatida

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs
huquqlarini ta'minlash

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

129 **ВАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовое регулирование агентской
деятельности в Республике Узбекистан

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**
Правовое регулирование статуса языка и
особенности его использования в различных
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./DBWF9616>

UDC: 343.132+342.7(045)(575.1)

EKSPERTIZA TAYINLASH VA O‘TKAZISHDA SHAXS HUQUQLARINI TA‘MINLASH

Olimov Bekmirza Tuxtapulatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0009-3601-0247
e-mail: toxtarolatovdoston266@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat dasturining “mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” yo‘nalishida jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini hamda Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida ushbu kodeksning 179-moddasini takomillashtirib, ushbu moddani “Ekspertiza tayinlash va o‘tkazishda shaxs huquqlari ta‘minlash” deb nomlash, ekspertiza tayinlash va o‘tkazishda jabrlanuvchi hamda qonuniy vakilning gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchi kabi huquqlarini belgilash, ekspertiza tayinlash haqida qaror chiqargan vakolatli shaxs tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, qonuniy vakil va boshqa shaxslarning ekspertiza tayinlash va o‘tkazishdagi ushbu moddada belgilangan huquqlarini tushuntirilishi va bu haqda bayonnoma tuzilishi shartligini kiritish, shuningdek, ushbu kodeksga tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov davrida kiritilgan iltimosnomalar bilan bog‘liq protsessual harakatlar va hujjatlarni aniq huquqiy tartibga soluvchi alohida moddani kiritish yuzasidan takliflar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs huquqi, qo‘shimcha ekspertiza, qayta ekspertiza, iltimosnoma, jabrlanuvchi, qonuniy vakil, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ПРИ НАЗНАЧЕНИИ И ПРОИЗВОДСТВЕ ЭКСПЕРТИЗЫ

Олимов Бекмирза Тухтапулатович,
самостоятельный соискатель Академии
Министерства внутренних дел
Республики Узбекистан

Аннотация. Совершенствование уголовно-процессуального законодательства в целях реализации направления Стратегии развития Нового Узбекистана «Превращение принципов справедливости и верховенства закона в основополагающее и необходимое условие развития страны» и принципа равенства всех граждан перед законом в соответствии с Конституцией Республики Узбекистан, а также в целях осуществления правосудия на основе равенства перед судом и законом необходимо усовершенствование статьи 179 Уголовно-процессуального кодекса, переименовав эту статью в «Обеспечение права личности при назначении и проведении экспертизы», включив в неё определение прав потерпевшего и его законного представителя, подозреваемого и обвиняемого при назначении и проведении экспертизы, разъяснение прав подозреваемого, обвиняемого, потерпевшего, законного представителя и иных лиц, указанных в статье, при назначении и проведении экспертизы, а также составления заключения об этом

уполномоченными лицами, принявшими решение о назначении экспертизы. Кроме того, внесены предложения о внесении отдельной статьи в указанный Кодекс, чётко регламентирующей порядок процессуальных действий и документов при рассмотрении ходатайств на стадиях доследственной проверки, дознания и предварительного расследования. В процессе исследования использовались методы синтеза, сравнительно-правового, индукционного и анализа научных знаний. По результатам проведённого анализа вносятся предложения относительно усовершенствования статьи 179 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, а также включения в данный Кодекс отдельной статьи, чётко регламентирующей процессуальные действия и документы по ходатайствам, поступившим в период расследования, дознания и предварительного следствия.

Ключевые слова: права человека, дополнительная экспертиза, повторная экспертиза, ходатайства, потерпевший, законный представитель потерпевшего, подозреваемый, обвиняемый.

ENSURING HUMAN RIGHTS IN APPOINTMENT AND CONDUCT OF EXPERTISE

Olimov Bekmirza Tukhtapulatovich,

Independent Researcher of Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan,

Abstract. Development strategy of the new state program of Uzbekistan in the direction of “turning the principles of justice and the rule of law into the most basic and necessary conditions for development” – improvement of criminal procedural legislation, equality of all citizens before the law in accordance with the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Code of Criminal Procedure in order to ensure the implementation of justice on the basis of equality of citizens before the law and the court, improving Article 179 of this Code, and renaming this article “Ensuring the right of the individual to be examined by the court”. Problem statement: it is necessary to fill the gaps in the existing procedures of criminal procedural legislation related to ensuring the rights of individuals in appointing and conducting expert examinations to ensure the establishment in this Code of equal rights for those who are legally interested in appointing and conducting an expert examination. In the process of research methods of synthesis, comparative-legal, induction and analysis of scientific knowledge were used. Based on the results of the analysis of the improvement of Article 179 of the current Code of Criminal Procedure of the Republic of Uzbekistan, as well as procedural actions and documents related to the petitions submitted to this code during the investigation, on request and preliminary investigation, proposals were made for the introduction of a separate article with specific legal regulation.

Keywords: personal right, additional examination, re-examination, petition, victim, legal representative, suspect, accused.

Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta‘minlanishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va tegishli farmonlari bilan tasdiqlangan davlat dasturlari doirasida xususan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga oid harakat-

lar strategiyasidagi beshta ustuvor yo‘nalishdan biri qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud huquq tizimini yanada isloh qilish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturida adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish lozimligi belgilandi.

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturining bu yo'nalishida jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish ham nazarda tutilgan.

Material va metodlar

Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs huquqlarini ta'minlanishi bilan bog'liq jinoyat-protsessual qonunchilikda mavjud tartiblardagi bo'shliqlarni to'ldirish, ekspertiza tayinlanishi va o'tkazilishidan qonuniy manfaatdor shaxslarga ushbu kodeksda teng huquqlar belgilanishini ta'minlash zarurligi ko'rinadi. Tadqiqotda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat dasturining "mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" yo'nalishida jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish hamda odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish maqsad qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning sintez, qiyosiy-huquqiy, induksiya va tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat-protsessual kodeksining vazifalari bo'lgan shaxslarning sodir etgan jinoyatlarini fosh etish, haqiqatni aniqlash, jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyatini Jinoyat kodeksini maxsus qismini tegishli moddasi bilan asosli va to'g'ri kvalifikatsiya qilish hamda jinoyat ishini qonuniy, asosli, adolatli hal etilishida ekspert xulosasi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi maxsus qismining 50 dan ortiq moddalarida quyidagi turdagi jinoiy javobgarlik belgilangan:

- hayotga qarshi jinoyatlar;
- sog'liqqa qarshi jinoyatlar;
- oqibati inson o'limiga sabab bo'lgan boshqa turdagi jinoyatlar;
- shaxsning boshqa turdagi jinoyatni sodir etishi natijasida inson sog'lig'ining turli darajada buzilishiga sababchi bo'lish jinoyatlari yuzasidan ekspert xulosasi mavjud bo'lgan-

dagina shaxsning sodir etilgan jinoyatdagi aybliligi masalasini hal etish mumkin bo'ladi.

Bunda ekspertiza tayinlanishi va o'tkazilishidan hamda o'tkazilgan ekspertiza natijasidan quyidagi shaxslar:

1) sog'lig'iga jismoniy zarar yetkazilganligi yuzasidan o'ziga nisbatan ekspertiza tayinlangan shaxs;

2) voyaga yetmagan shaxsga, belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxsga, shuningdek, marhumga nisbatan ekspertiza tayinlanishi va o'tkazilishidan qonuniy manfaatdor bo'lib jinoyat ishini qo'zg'atish ekspert xulosasiga bog'liq bo'lgani sababli ekspertiza tayinlangan va o'tkazilgan vaqtda ishda qonuniy vakil sifatida jalb etilmagan shaxslar (bundan keyingi o'rinlarda boshqa shaxslar deb e'tirof etiladi);

3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi; jabrlanuvchi, shuningdek, qonuniy vakil qonuniy manfaatdor bo'ladi.

Jinoyat ishlarini yuritishda shaxslarning ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari ta'minlanishini tahlil qilsak.

Birinchi, qachonki ekspertiza tayinlanib, ekspertiza o'tkazilib, ekspert xulosasi tuzilganidan keyingina shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksi maxsus qismini sog'liqqa qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan tegishli moddasi bilan jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin bo'ladi. Chunki sog'liqqa qarshi jinoyat ishini qo'zg'atish shaxsga yetkazilgan tan jarohatining darajasiga bog'liq bo'lib, shaxsga yetkazilgan tan jarohatining darajasini esa faqat ekspert aniqlaydi. Bunda shaxsni jabrlanuvchi sifatida ishga jalb etish masalasi ekspertiza natijasiga bog'liq bo'lganligi sababli ekspertiza tayinlangan va o'tkazilgan paytda bu shaxsni jabrlanuvchi emas, balki "sog'lig'iga jismoniy zarar yetkazilganligi yuzasidan o'ziga nisbatan ekspertiza tayinlangan shaxs" deb ta'riflansa, xato bo'lmaydi. Bundan tashqari, voyaga yetmagan yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxsni sog'lig'iga jismoniy zarar yetkazilganligi yu-

zasidan, shuningdek, shaxsga nisbatan inson o'limiga sababchi bo'lganlik bilan bog'liq jinoyat ishini qo'zg'atish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmagan, biroq zo'raki o'limga shubha bo'lgan hollarda ham bu shaxslarning huquqlari yuzasidan boshqa shaxslarni qonuniy vakil sifatida ishga jalb etish masalasi ekspertiza natijasiga bog'liq bo'lib, ekspertiza tayinlangan va o'tkazilgan paytda bu shaxslarning huquqlari yuzasidan boshqa shaxslar ishda qonuniy vakil maqomiga ega bo'lmaydi. Amaliyotda, mana shu hollarda o'tkazilgan ekspertiza natijasiga ko'ra tuzilgan ekspert xulosasiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atish rad qilingan hollarda sog'lig'iga jismoniy zarar yetkazilganligi yuzasidan o'ziga nisbatan ekspertiza tayinlangan shaxs va boshqa shaxslar tomonidan: fuqarolar murojaatlarining aylanma harakatlanishiga, ya'ni murojaatlarning virtual qabulxona, bosh prokuratura va davlatning boshqa organlariga va rahbarlariga yuborilishi, ushbu murojaat kelib tushgan davlat organi yoki rahbari tomonidan o'sha hududdagi prokuraturaga yuborilishi, ushbu murojaatning prokuror tomonidan o'rganilishi, vakolatli shaxsning qabul qilgan qarorini bekor qilishi va yana o'sha vakolatli shaxsga yozma topshiriq yuborishi, vakolatli shaxs tomonidan esa yana ishdan qonuniy manfaatdor shaxslardan tushuntirishlar olish va boshqa protsessual harakatlarni o'tkazish jarayonlariga sabab bo'layotganligi ko'rinadi.

Ikkinchi, Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinuvchi, shuningdek, ayblanuvchi ekspertiza o'tkazilgunga qadar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan tanishtirilishi va huquqlari tushuntirilishini talab qilish, ekspertni rad etish, ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, qo'shimcha materiallar taqdim etish, ekspertdan tekshiruv vaqtida qo'layotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish, ekspert xulosasi bilan tanishib chiqish, qo'shimcha yoki

qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish kabi huquqlari belgilanib, gumon qilinuvchiga o'z huquqlari yuzasidan manfaatlari qarama-qarshi bo'lgan sog'lig'iga jismoniy zarar yetkazilganligi yuzasidan o'ziga nisbatan ekspertiza tayinlangan shaxsning va boshqa shaxslarning, ayblanuvchiga esa o'z huquqlari yuzasidan manfaatlari qarama-qarshi bo'lgan jabrlanuvchining ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari ushbu kodeksda belgilanmagan.

Uchinchi, gumon qilinuvchi, shuningdek, ayblanuvchini ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari ta'minlanishining huquqiy tartibga solinishiga oid Jinoyat-protsessual kodeksidagi mavjud tartiblarda bo'shliqlar mavjudligi ko'rinadi. Bunda ushbu kodeksda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega ekanligi belgilangan bo'lsa-da, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazishga oid keltirgan iltimosnomasini, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ko'rib chiqishining muddati va ushbu qarorni manfaatdor tomonlarga yuborish yoki tanishtirish tartibi, iltimosnoma yuzasidan qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish va ushbu shikoyatni ko'rib chiqish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksida aniq huquqiy tartibga solinmagan.

Shu sababli ham amaliyotda gumon qilinuvchi, shuningdek, ayblanuvchi tomonidan qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish yuzasidan iltimosnomalar deyarli kiritilmaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tahlillar natijasiga ko'ra jabrlanuvchi, qonuniy vakil, shuningdek, ekspertiza o'tkazilishi va ekspertiza natijasidan qonuniy manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarning ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlarini ushbu kodeksda belgilash natijasida ularning bu bo'radagi huquqlarini gumon qilinuvchi va ayblanuvchi bilan tenglashtirish orqali odil sudlovning fuqarolarning qonun va sud oldida

tengligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash;

- jinoyat ishini qo'zg'atishga, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishga, Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli modda, qism yoki bndlari bilan emas, balki boshqa modda, qism yoki bndlar bilan jinoyat ishi qo'zg'atilishiga va dastlabki tergov harakatlari olib borilishiga va ayblanayotganiga "ekspertiza tayinlanmaganligi va o'tkazilmaganligi yoki ekspertiza to'liq o'tkazilmaganligi sabab bo'layotgan" deb hisoblayotgan ekspert tayinlanishi va o'tkazilishidan qonuniy manfaatdor bo'lgan shaxslarning davlatning boshqa organlariga murojaat qilishlari o'rniga qo'shimcha, qayta yoki boshqa turdagi ekspertizalarni o'tkazish yuzasidan iltimosnoma kiritishlarini ta'minlash;

- Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari ta'minlanishiga oid tartiblardagi bo'shliqlarni to'ldirish, ushbu kodeksda bu shaxslarning huquqlarini ta'minlashning aniq va mukammal tartibini belgilash;

- ekspert xulosasidan qonuniy manfaatdor bo'lgan barcha shaxslarning ish bo'yicha to'liq tushunchaga ega bo'lib turli davlat organlariga asossiz murojaat qilishlarining oldini olish, fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanishini ta'minlash orqali fuqarolarning ortiqcha sarsongarchiligiga, murojaatlar va hujjatlarining ortiqcha aylanma harakatlanishiga chek qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 179-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish hamda ushbu kodeksga tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov davridagi iltimosnomalar bilan bog'liq protsessual harakatlar va hujjatlarni aniq huquqiy tartibga soluvchi alohida moddani kiritish zarur. Bunda:

1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari belgilangan Jinoyat-protsessual kodeksi 179-moddasini takomillashti-

rib, ushbu moddani "Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs huquqlarini ta'minlash" deb nomlash, ushbu moddada jabrlanuvchi hamda qonuniy vakil ekspertiza tayinlash va o'tkazishda gumon qilinuvchi hamda ayblanuvchi kabi huquqlarini belgilash, asosli va qonuniy ekspert xulosasini ta'minlash maqsadida o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan ekspertiza o'tkazilishini talab qilishga oid bandni chiqarib yuborish, ekspertiza tayinlash va o'tkazishda esa ekspertiza tayinlash haqida qaror chiqargan vakolatli shaxs tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, qonuniy vakil va boshqa shaxslarning ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi ushbu moddada belgilangan huquqlari tushuntirilishi va bu haqda bayonnoma tuzilishi shartligini ushbu moddaga "bu huquqlarga shuningdek, ekspertiza tayinlangan va o'tkazilgan paytda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, qonuniy vakil sifatida ishga jalb etish masalasi hal etilmagan o'zining va boshqa shaxslarning huquqlari yuzasidan ekspertiza tayinlanishi va o'tkazilishidan qonuniy manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar ham ega" ekanligini kiritish;

2) O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga yangi 179-1-moddani kiritib, ushbu moddani quyidagi tahrirda bayon etish:

"Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov davrida iltimosnomalarni ko'rib chiqish

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov davrida ushbu kodeksning 179-moddasida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan kiritilgan iltimosnomalar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan 5 sutka muddat ichida ko'rib chiqiladi va iltimosnoma yuzasidan qabul qilingan qaror bilan manfaatdor tomonlar xabardor qilinadi; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi-

ning iltimosnoma yuzasidan chiqargan qarori yuzasidan prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

Ushbu shikoyat bevosita tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organing mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchiga kelib tushgan hollarda esa shikoyat va unga ilova qilingan hujjatlar 24 soat ichida prokurorga yuborilishi shart; prokuror shikoyat asosligini ushbu shikoyat prokuratura organiga kelib tushgan kundan boshlab 10 sutka ichida ko'rib chiqib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organing mansabdor shaxsini, surishtiruvchini, tergovchining iltimosnoma yuzasidan qabul qilgan qarorini, shuningdek, boshqa qarorini ham bekor qilishi hamda yozma ko'rsatma yuborishi mumkin; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organing mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ekspertiza tayinlash va o'tkazishga oid kiritilgan iltimosnomalar yuzasidan chiqargan qarorlari kelgusida ishning har qanday bosqichida har qanday turdagi ekspertizalarni tayinlanishi va o'tkazilishiga to'sqinlik qilmaydi; ishda o'zining va boshqa shaxslarning huquqlari yuzasidan qonuniy manfaatdor

bo'lgan shaxslar tomonidan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov davrida keltirilgan ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa masalalarga oid iltimosnomalari va ushbu iltimosnomalar yuzasidan keltirilgan shikoyatlari ham agar ushbu kodeksning boshqa moddalarida keltirilgan iltimosnomalarni ko'rib chiqishning va iltimosnoma yuzasidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan keltirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqishning boshqa tartibi belgilanmagan bo'lsa, ushbu moddada ko'rsatilgan tartibda ko'rib chiqiladi".

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyot strategiyasi davlat dasturining "mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" yo'nalishida jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini hamda Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksiga yuqoridagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish lozim bo'ladi.

REFERENCES

1. Klevno V.A., Khokhlov V.V. Sudebnaya meditsina [Forensic Medicine]. 2nd ed., revised. and additional. 2020.
2. Barygina A.A. Dokazyvaniye v ugovnom protsesse: otsenka otdel'nykh vidov dokazatel'stv [Evidence in criminal proceedings: assessment of certain types of evidence]. 2020.
3. Drapkina L.Ya. Kriminalistika [Forensics]. In 3 parts. 2020, Part 2.
4. Usachev A.A. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. 5nd ed., revised. and additional. Moscow, 2020.
5. Gavrilov B.Ya. et al. Ugolovnyy protsess. Praktikum [Criminal process. Workshop]. Moscow, 2020.
6. Bazarova D., Astanov I.R. Kriminalistika va ekspertiza [Forensic science and examination]. Tashkent, TSUL, 2020.
7. Kul'kov V.V., Rakcheva P.V. Ugolovnyy protsess. Metodika predvaritel'nogo sledstviya i doznaniya [Criminal process. Methodology of preliminary investigation and inquiry]. 2nd ed., revised. and additional. Moscow, 2020.

8. G'iyosov Z.A. Sud tibbiyoti [Forensic medicine]. Tashkent, 2021.
9. Sud tibbiyoti va psixiatriyasi [Forensic medicine and psychiatry]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2006.
10. Turimbetov R., Qalandarova M., Qurbonov N. Sud ekspertizasi savollarini shakllantirishning muhim jihatlari [Important aspects of the formulation of forensic examination questions]. Tashkent, 2021.
11. Inamov R.P. Kriminalistika [Forensics]. Tashkent, 2009.
12. Abdumajidov G' et al. Kriminalistika [Forensics]. Tashkent, Adolat Publ., 2003.
13. Astanov I.R. Jinoyat ishlari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual va kriminalistik jihatlari [Procedural and criminological aspects of the use of special knowledge in criminal cases]. Abstract of PhD thesis. 2018.
14. Pulatov Y.S., Usmonov M.B. Jinoyat ishini qo'zg'atishga qadar sud ekspertizasini tayinlashning ba'zi muammolari [Some problems of appointing a forensic expert before the initiation of a criminal case]. Forensic Expertise of Uzbekistan, 2021, no. 1 (1).
15. Bababekov N. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida maxsus bilimlardan foydalanish [Use of special knowledge in the investigation process before the investigation]. *Legal Social Scientific-practical Journal*, 2023, May, p. 29.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjajev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.

TDYU tipografiyasida chop etildi.